

# **Toshkent Axborot Texnologiyalari universitetida Erasmus+ dasturi doirasida xalqaro loyiha ochilish marosimi bo'lib o'tdi.**

Joriy yilning 22-24-yanvar kunlari Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, respublikamizning 7 ta va Yevropaning Ittifoqining 3 ta – Italiyaning Politecnico di Torino universiteti, Portugaliyaning Universidade de Evora universiteti, Ispaniyaning Universidad Politecnica de Madrid universitetlari hamkorligida ERASMUS+ Higher Education Capacity Building loyihalari doirasida “Development of the targeted Educational program for Bachelors in Solar Energy in Uzbekistan (DEBSEUz)” xalqaro loyihasi ishtirokchilarining birinchi uchrashuvi hamda loyihaning ochilish marosimi (Kick-off meeting) bo'lib o'tdi.

Loyihaning quyidagi qator masalalar muhokama etildi:

- Yangi bakalavr dasturlarini ishlab chiqish
- Innovatsion laboratoriyalarni yaratish
- Loyiha barqarorligini ta'minlash
- Sifat nazorati va monitoring
- Loyihaning kommunikatsiyasi, yangiliklari va imiji
- Moliyaviy boshqaruvdagi muammolar.







Manba: [Axborot xizmati](#)